

4. Яхьяев Б. Кутлиева Дж. Характеристика многофункциональной кормовой добавки на основе пробиотика «Бактовит» для животноводства. International scientific journal science and innovation. Published September 23, 2023, 1130-1136 p.

UO‘K: 636.32/38.082

TIRIK VAZN MAHSULDORLIKNI BELGILOVCHI ASOSIY KO‘RSATKICH

A.X.Xatamov–q.x.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim,
ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti
asror.xatamov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘ylarning o‘sish xususiyatlariga ta’sir etuvchi omillar, ularning tirik vazni bilan mahsuldorlik xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti bo‘yicha tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qo‘y, tirik vazn, o‘sish, rivojlanish, oziqlantirish, yaylov sharoiti, mahsuldorlik

Summary. The article analyzes studies of factors influencing growth characteristics of sheep, as well as the correlation coefficient between their live weight and productivity.

Key words: sheep, live weight, growth, development, feeding, pasture conditions, productivity

Kirish. Qishloq xo‘jaligi hayvonlarining tirik vazni o‘sish ko‘rsatkichlari ulrning ko‘plab mahsuldorlik xususiyatlari bilan korrelyatsion bog‘liqlikka ega. Chorva hayvonlarining tirik vazni va uning yosh davrlari kesimida o‘sishi ularning mahsuldorligining shakllanishida va yuzaga chiqishida asosiy omil bo‘lib, uning ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishi mahsuldorlikning namoyon bo‘lishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda aytish kerakki, qo‘ylarning o‘sish xususiyatlariga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi xususan, ularning zoti, yoshi, jinsi, oziqlantirish sharoiti va miqdori, asrash va saqlash sharoitlari, mahsuldorlik yo‘nalishi, yaylov sharoiti, tashqi muhit va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Qo‘ychilik chorvachilikning yaylov sharoitida rivojlanuvchi asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi. U nafaqat sanoatni xom-ashyo bilan ta’minlash, balki, oziq-ovqat xavfsizligi va aholini ish bilan ta’minlash hamda turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 1 320,0 mln bosh turli mahsuldorlik yo‘nalishidagi qo‘y zotlari urchitiladi. O‘zbekistonda ularning soni 19,9 mln boshni tashkil qiladi. Ularning genofondini saqlash va boyitish, nasl xususiyatlaridan samarali foydalanish orqali yetishtiriladigan mahsulot hajmini oshirish, yil sayin oshib borayotgan mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim hisoblanadi.

Qo‘ylarning tirik vazni bilan ularning mahsuldorligi o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqliklar mavjud va bu bog‘liqliklarni ularni urchitishda va mahsuldorligini

oshirishda hisobga olinishi lozim. Bu esa maqsadga erishishda seleksiya jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Go'sht-jun yo'nalishidagi yarim mayin junli akjay qo'y zotida tirik vazn va jun qirqimi miqdori o'rtasida korrelyatsiya koeffitsienti 0,29-0,38; tirik vazn va jun uzunligi o'rtasida 0,09-0,11 va tirik vazn va jun tolalari ingichkaligi o'rtasida 0,13-0,20 ga teng [6].

Tirik vazn va go'shtdorlik indeksi o'rtasida korrelyatsiya koeffitsienti salsk (mayin junli) qo'y zotida 0,33; salsk zotining duragaylarida linkolin 0,46; tekssel 0,90 va sharq-friz 0,87 ga teng [5].

Tirik vazn va jun qirqimi miqdori o'rtasida korrelyatsiya koeffitsienti prekos (go'sht-jun yo'nalishidagi mayin junli qo'y zoti) zotida 0,60-0,81, quybishev (yarim mayin junli go'sht-jun yo'nalishidagi qo'y zoti) zotida 0,84-0,89, romni marsh (yarim mayin uzun junli go'sht-jun yo'nalishidagi qo'y zoti) zotida 0,76-0,84 ga teng. Tirik vazn va jun tolalari uzunligi qirqimi o'rtasida korrelyatsiya koeffitsienti mos ravishda 0,55-0,70; 0,70-0,79; 0,52-0,64 hamda tirik vazn va jun tolalari ingichkaligi bo'yicha tegishli 0,70-0,79; 0,87-0,88; 0,72-0,75 [3].

Qo'zilarining tug'ilgandagi dastlabki oyidagi tirik vazni bilan onasining sutdorligi o'rtasida korrelyatsiya koeffitsienti 0,87-0,90 ga teng.

Qo'ylarning o'sish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. O'sish ko'rsatkichlariga cho'l yaylovlarning hosildorligi, yaylovda boqish usullari, etologik va mahsuldorlik xususiyatlari ta'sir ko'rsatib, seleksiya ishlarida ushbu ma'lumotlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega [1, 2, 7, 8, 13, 14].

Qo'ylarning o'sish ko'rsatkichlarini yaxshilashda ekstruderlangan ozuqalar, probiotiklardan foydalanish yaxshi samara beradi [9, 10, 11].

Tadqiqotlarda "Barokat" yemidan foydalanilganda 4-4,5 oylikda tajriba guruhi nazorat guruhidagi qo'zilardan tirik vazn ko'rsatkichi 3,3 kg yoki 12,8%, 6 oylikda esa 3,5 kg yoki 11,7% yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lganligi kuzatilgan. Tajriba davomida qo'zilarining mutlaq o'sish ko'rsatkichi 4-4,5 oylikda tajriba guruhida 25,18 kg ni tashkil qilib, kunlik o'sish tajriba guruhida nazorat guruhidan 25,0 gram yoki 15,4%, 6 oylikda tajriba guruhi, nazorat guruhidan kunlik o'sish 5,0 gram, 3,1% ga yuqori ko'rsatkich namoyon qilgan [4]. Bu esa ekstruderlangan ozuqalar bilan oziqlantirish orqali qorako'l qo'ylari tirik vaznini barcha yosh davrlarida yuqori bo'lishini ta'minlashini anglatadi. Umuman olganda tirik vaznning barcha yosh davrlarida yuqori bo'lishi ularda go'shtdorlikning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini bashorat qilish mumkin.

Qo'ylarning o'sish va rivojlanishiga boshqa omillar bilan bir qatorda ularning etologiyasi ham ta'sir ko'rsatadi. Qo'zilarda tirik vaznning o'sish dinamikasi qo'ylarning etologik tiplari kesimida farq qilgan. Tadqiqotlarda barcha yosh davrlarida birinchi etologik tip qo'ylari avlodlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kuzatilib, ularning tirik vazni 4-4,5 oylikda $28,34 \pm 0,34$ kilogrammni, 12 oylikda $30,8 \pm 0,37$ kilogrammni, 18 oylikda esa $37,9 \pm 0,45$ kilogrammni tashkil etishi kuzatilgan. Qo'ylarning ozuqaga bo'lgan faol reaksiyasi ya'ni ko'p ozuqa iste'mol qilishi ular avlodlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan [12].

Hayvonlarning hayoti davomida yetarli semizlik darajasida saqlash ularning nafaqat fiziologik balki, mahsuldorlik xususiyatlarini yuqori darajada yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, qo'ylarning zotdorligi, oziqlantirish va saqlash sharoitlariga e'tibor berish orqali ularning tirik vazni yuqori darajada yuzaga chiqishi ta'minlansa, ulardan olinadigan mahsulotning hajmi ham yuqori bo'lishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бобокулов Н.А., Хатамов А.Х. Состояние природных пастбищ предгорной полупустыни и взаимосвязь продуктивности животных с их этологической поведенческой характеристикой //Формирование и развитие сельскохозяйственной науки в XXI веке. – 2016. – С. 436.

2. Bobokulov N., Khatamov A., Abduzoirova D., Yusupov A., Urimbetov A., Olmasov B. (2021). Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors. In E3S Web of Conferences (Vol. 258, p. 04020). EDP Sciences.

3. Гаглоев А.Ч., Негреева А.Н. Генетико-статистические параметры чистопородных и помесных овец // Вестник ОмГАУ. 2017. №2 (26). С. 19-27

4. Normuminova M., Xatamov A.X. "Barokat" yemini qorako'l qo'zilar o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri. // "Cho'l chorvachiligi, ekologiyasi, yaylov agrofitosenozlarini yaratishning dolzarb muammolari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand 2023-y, 120-122 b.

5. Семенченко С. В., Дегтярь А. С. Мясная продуктивность помесных овец // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 2. – С. 265–270.

6. Траисов Б.Б., Смагулов Д.Б., Есенгалиев К.Г. Коэффициенты наследуемости и корреляции хозяйственно полезных признаков акжайкских мясо-шерстных овец. // Известия ОГАУ. 2017. №4 (66). С. 189-191

7. Хатамов А.Х., Бобокулов Н.А., Попова В.В. Оптимизация приемов выпаса каракульских овец каракалпакского сура разных этологических типов // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2017. – С. 1411-1414.

8. Хатамов А.Х. Мясная продуктивность каракульских овец каракалпакского сура различных этологических типов // Овцы, козы, шерстяное дело. – 2018. – №. 4. – С. 26-26.

9. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP // Conferencea. – 2022. – С. 127-131.

10. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products // Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 10. – С. 130-132.

11. Xatamov A., Normuminova M. The effect of "barakat" fertilizer on the growth indicators of lambs and the milk production of children. ISSN: 2776-0979, In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Nov., 2022. PP. 1550-1553 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NRKCT>

12.Хатамов А.Х. Турли этологик типдаги қорақалпоқ сур қоракўл қўйларининг тирик вазн кўрсаткичлари ва унинг динамикаси. //Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. -Тошкент, 2019. -№2. Б. 11-12.

13.Khatamov A. "Relationship of Karakul Sheep Productivity with Their Ethological Characteristics." International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences 1.6 (2021): 156-158.

14.Kh K. A. Growth and Development of Young Karakul Sheep of Different Ethological Types //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – Т. 12. – С. 22-25.

UO‘K: 636.32/.38.084

PROBIOTIK BILAN OZIQLANTIRILGAN NASLLI QO‘CHQORLARDAN OLINGAN AVLODLAR SIFATINI BAHOLASH

A.X.Xatamov–q.x.f.d (PhD), katta ilmiy xodim,

J.B.Qozoqov–mustaqil izlanuvchi

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada naslli qorako‘l qo‘chqorlaridan olingan qo‘zilarning tirik vazni, gul tipi, gul sinfi, o‘rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qorako‘l qo‘yi, probiotik, ozuqaviy qo‘shimcha, tirik vazn, gul sinfi.

Summary. The article presents the results of the study of live weight, flower type, Flower class, of lambs from breeding Blackbird Rams.

Key words: Karakul sheep, breeding rams, probiotic, food supplement, live weight, class.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi hayvonlarining xo‘jalik foydali xususiyatlaridan biri bu ularning tirik vazni hisoblanadi. Chunki, ko‘plab belgilar bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liqlikka ega. Shu nuqtai nazardan qorako‘l qo‘ylarini urchitishda tirik vazniga e‘tibor qaratish ulardan olinadigan mahsulotning yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi.

Qorako‘l qo‘ylarining tirik vazni yuqori darajada namoyon bo‘lishiga ularning zotdorligi, oziqlantirish va tashqi muhit omillari u yoki bu darajada ta‘sir ko‘rsatishi tadqiqotlardan ma‘lum.

Qorako‘l qo‘ylarining tug‘ilgan vaqtdagi tirik vazni muhim ko‘rsatkich bo‘lib, qo‘zilarning voyagan yetish davrida mahsuldorligi va genetik potensialining qay darajada yuzaga chiqishi to‘g‘risida fikr yuritishga yordam beradi. Shu sababli, qo‘chqorlarning nasl xususiyatlarini baholashda ulardan olingan avlodlarning tug‘ilgan vaqtdagi tirik vaznini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda olingan ma‘lumotlarga asosan probiotiklar hayvon organizmida (oshqozon ichaklarda) ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash, sovliqlarning sut miqdorining oshishi hamda kimyoviy tarkibi miqdor jihatdan yaxshilanishi aniqlangan [6].

16	Turanov M.H., Boltayev A.J. Buxoro suriga mansub olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘ylardan olingan avlodlarda jun-tola qoplami sifat va o‘lchamli ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanligi	59
17	Urinboyeva M.M. Turli juftlash variantlaridan olingan avlodlarning rangbarangligi	62
18	Yarmanov M.S. Sur rangli qorako‘l qo‘ylarini pigmentlanish darajasi va rang tekisligi bo‘yicha seleksiyalash samaradorligi	64
19	Akbarova M.V., Abdixalilov A.S., Mamatov B.S. Qorako‘l qo‘ylarini yirikligi bo‘yicha turli juftlashdan olingan avlodlarda gul enining namoyon bo‘lishi	67
20	Alimova M.A. Konstitutsiya tiplari bo‘yicha qorako‘l qo‘zilarning tirik vazn dinamikasi	70
21	Rajabov O.T. Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning gul uzunligi va kengligi bo‘yicha taqsimlanishi	73
II. CHO‘L CHORVACHILIGIDA OZIQLANTIRISH VA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
22	Shaptakov E.S., Yaxyayev B.S., Popova V.V. Semizlik darajasi past bo‘lgan bo‘g‘oz qorako‘l sovliqlar ratsionida ko‘p funksiyali ozuqa qo‘shimchasidan foydalanish	77
23	Xatamov A.X. Tirik vazn mahsuldorlikni belgilovchi asosiy ko‘rsatkich	81
24	Xatamov A.X., Qozoqov J.B. Probiotik bilan oziqlantirilgan naslli qo‘chqorlardan olingan avlodlar sifatini baholash	84
25	Yaxyayev B.S., Suyunova Z.B. Bo‘q‘ozlik davrida semizlik darajasi past bo‘lgan qorako‘l sovliqlar ratsionida ko‘p funksiyali ozuqa qo‘shimchasidan foydalanishning qo‘zilar o‘sinh va rivojlanishiga ta‘siri	87
26	Яхяев Б.С., Турсунов Ж. Органолептические и физико-химические показатели воды для контроля культивирования микроводоросли <i>chlorella vulgaris</i>	92
27	Махамматова Д., Газиёв А. Qora rangli qorako‘l qo‘zilarining turli yosh doirasidagi tirik vaznining o‘zgarish dinamikasi	95
28	Oqboyev F.B., Klichev Z.S. Qashqadaryo viloyatining turli ekologik hududlarida qorako‘l qo‘zilar tirik vaznining o‘zgaruvchanligi	97
29	Попова В.В., Турсунов Ж. Влияние степени минерализации воды в водоисточниках пустынных пастбищ на продуктивность каракульских овец	100
30	Mamatov B.S., Turanov M.H. Mo‘g‘ulistondan keltirilgan bayad zotli qo‘ylarning moslashuvchanlik va ayrim mahsuldorlik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha birlamchi mulohazalar	104
31	Nomozova O.I., Aripov U.X. Turli rangdagi qorako‘l qo‘ylarinining tirik vazni, teri sathi va mahsuldorlik xususiyatlarining yuzaga chiqishi	109